

ARAB TILSHUNOSLIGI

*Andijon davlat chet tillari insituti Ingliz tili
Filologiyasi o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik
Fakulteti sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
102guruh talabasi*

Nabijonova Dilobar Ravshanbek qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Arab tilshunosligi haqida malumotlar beriladi. Ushbu maqola arab tilshunosligining shaklanishi, asosiy yo'nalishlari, grammatika maktablari va uning va uning jahon linguvistikasidagi o'rnini haqida qisqacha ilmiy tahlil beriladi.

Kalit so'zlar: Arab tilshunosligi, nahv, sarf, balog'at, qiroat, lug'at gramatik manbalar.

Arab tilshunosligi tarixi juda qadimdan bo'lib, uning shaklanishi Qur'onning nozil bo'lishi, arabshevalarining hilma-hiligi va yozma manbalarining paydo bo'lishi katta tasir ko'rsatgan. 8-9 asrlarda arab grammatikasi mustaqil ilmiy yo'nlash sifatida shakllandi. Arab tilshunosligi so'z sifatida yasalishi, gap tuzilishi, ma'no va uslubiyat, fonetika, leksikografiya va qiroat ilmlarini chuqur ishlab chiqdilar. Barsa va kufa grammatik maktablari arab tilshunosligining asosiy markazlari bo'lib, ularda til materiallarini tartibga solish, qoidalarini yaratish, tildagi istisnolarni izohlash va normativ grammatikani shakllantirish ishlari olib borilgan. Barsa maktabi qat'iy qoidalarga tayanishi bilan mashhur bo'lgan bo'lsa, Kufa maktabi ko'proq amaliy nutq an'analari suyanib ish yuritgan.

Arab tilshunosligi fonetika sohasida ham yirik ilmiy ishlar yaratgan. Xususan, tovushlarning artikulyatsiyasi, mahrajlar, sifatlar, unli-undosh tizimi juda erta davrdanoq tizimlashgan. Bu keyinroq fonetika tadqiqotlarining metodik asosini tashkil etadi. Leksikografiya ham arab tilshunosligining yirik yutuqlaridan biridir. Qadimiy lug'atlar arab qabilalarining tirik nutqidan, shevalaridan, tarixiy matnlardan yig'ilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan. Bu jarayon keyinchalik ilmiy lug'at tuzish an'analari ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligi Sharq ilmiy maktablarining eng muhim yo'nalaridan biri bo'lib, uning yutuqlari hozirgi zamon linguvistikasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Arab tili nafaqat diniy va madaniy merosni, balki umumiy tilshunoslik nazaryalarini shakllantirishga ham asosiy manba bo'lib qolmoqda.